

O'ZBEK MILLIY MUSIQIY MEROSINING TARIXIY ILDIZLARI, YO'NALISHLARI VA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Xojimamatov Azimjon Fayzullo o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

azimjonxojimamatov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek milliy musiqiy merosining tarixiy ildizlari, yo'nalishlari va shakllanish bosqichlari ko'rib chiqiladi. Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan ekanligi ko'rsatilgan. Musiqa va meros tushunchalari borasida Sharq olimlarining qarashlari maqolada o'z aksini topgan.*

Kalit so'zlar: *musiqa, milliy meros, folklor, cholg'u, madaniy muhit*

O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor-havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosiga ko'tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq otabobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boylklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi.

Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davrlardagidek bugun ham "labbay" deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy taraqqiyotda bosh omillardan

bo'lmish musiqiy san'at bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir.

Arxeologik tadqiqotlar o'zbek xalqi musiqa madaniyatining ildizlari zardushtiylik dini va madaniy muhiti shakllangan davrga borib taqalishini ko'rsatib beradi. Zero, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan Avestoda tanbur, vinig, chang, nay kabi kabi ko'plab cholg'u asboblari tilga olingan³⁷. Manbalarning guvohlik berishicha, Zardushtning o'zi ham tanburda kuylar ijro etgan. Shuningdek, afrosiyob harobalaridan surnay, doira, ushpulaklar ham topilgan bo'lib, eng muhimi, ular ushbu musiqa asboblarning hozirgi shaklidan deyarli farq qilmaydi.

Umuman, jahon olimlari O'zbekiston hududini xordofonlarning (torli soz) vatani deb tan olganlar. Torli sozlar eramiz boshlaridan turli yo'llar bilan dunyo xalqlariga tarqala boshlagan³⁸.

Qadimgi Xorazmda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlarda milodiy VI asrga tegishli burg'u surati topilgan. Shuningdek, askarlar ichida harbiy orkestrlar bo'lganligi aniqlangan. Bu cholg'u Amir Temur armiyasida ham bo'lib, o'zining dahshatli ovozi bilan nom chiqargan edi. Mazkur burg'u sozi keyinchalik Yevropaga ham tarqalgan.

Musiqa madaniyatining "nota" yozuvlaridan biri ham sharqda ixtiro qilingan. Ulardan biri Ozarbayjon mutafakkiri Safiuddin Urmaviy tomonidan Ud torli chertma sozi uchun mo'ljallangan yozuv vositasida yaratilgan tabulaturadir. Demak, bundan mazkur mutafakkir ilk bor o'n ikki maqom tizimini tasnif qilganligini bilishimiz mumkin.

Yana bir Sharqning buyuk musiqashunosi Abdulqodir Marog'iy bo'lib, u dastlab Bag'dod saroyida xizmat qilgan. Bag'dod Amir Temur tomonidan bo'ysundirilgach, u Samarqandda Temur saroyida, so'ngra Hirotda Shohruh saroyida ilmiy-ijodiy faoliyat ko'rsatgan. Abdulqodir Marog'iy Sharq musiqasining yetuk bilimdoni sifatida "Kular xazinasi", "Taronalar to'plami", "Kular haqida kitob" kabi asrlarni yaratgan³⁹.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, Turkiston hududi Sharq mumtoz musiqa madaniyati shakllangan va rivojlangan markazlardan biri sanaladi. Biroq asrlar davomida o'zbek xalqi ma'naviy merosining asosiga aylangan milliy va mumtoz musiqa madaniyati sobiq ittifoq mustamlakachilik tazyiqlarini boshdan kechirdi.

Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirilgach, mustamlakachilar o'lkada rus va Yevropa musiqa san'atini targ'ib etish maqsadida yevropacha musiqa muassasalarini tashkil etadilar. Jumladan, Toshkentda 1884-yilda musiqa jamiyati tomonidan simfonik orkestr va xor to'garagi tuzilgan. 1898-yilda esa

³⁷Назаров А. Антик давр мусиқа маданияти. –СИТИ. М(м)Н-19. –Б. 19.

³⁸Ширинов Т.Ш. Тарихимиз этюдлари. –Тошкент.Шарқ. 2008. –Б. 336.

³⁹Йўлдашева С.Х. Ўзбекистонда мусиқа тарбияси ва таълимнинг ривожланиши. – Тошкент. Ўқитувчи. 1985. –Б. 13.

“lira” xor to‘garagi ochiladi. Shundan so‘ng o‘lkaning boshqa ma‘muriy markazlarida ham G‘arb musiqasevarlari tomonidan bir qator to‘garaklar ochilib, ish boshladi⁴⁰.

Shu bilan birga bu davr o‘zbek milliy musiqasining jahonga yuz tutishi davri ham bo‘lgan. 1889-yilda Shorahim Shoumarov, Hamroqul Qori, Erka Qorilar ijrosidagi milliy musiqalar “Edisson” nomli nemis firmasi tomonidan yozib olinib, Yevropa qit‘asiga tarqala boshlagan edi.

1905-yilda Mulla To‘ycha Toshmuhammedov Moskva va Riga shaharlariga safar qilgan va o‘shanda uning ijrosida “Ilg‘or”, “Yangi Kurd”, “Eshvoy”, “Suvora” kabi yigirmadan ortiq qo‘shiqlar Sharq musiqasi shinavandalari tomonidan grammofon plastinkalariga yozib olinib tarqatilgan⁴¹. Shundan so‘ng Mulla To‘ychining xizmatlari o‘laroq Turkistonning bir qancha shaharlarida ham grammofon plastinkalarini sotadigan do‘konlar tashkil etiladi⁴².

1909-yilda betakror xonanda va bastakor Sodirxon hofiz tomonidan ijro etilgan ko‘pgina ashulalar ham Angliyaning ovoz yozish firmalari tomonidan yozib olingan. Shu yili Riganing “Grommofon” jamiyati tomonidan mashhur hofiz va dutorchi sozanda Hoji Abdulaziz Rasulovning “Iroq”, “Nasrulloiy”, “Ushshoq” kabi ko‘plab ijrolari ham yozib olinib, yevropadagi Sharq musiqasi ixlosmandlariga yetkazilgan. Umuman, o‘zbek milliy musiqa san‘ati namunalari har doim jahon xalqlari tomonidan juda katta qiziqish bilan kutib olingan.

1928-yil Samarqand shahridagi Sherdor madrasasida musiqa va Xoreografiya ilmiy tekshirish instituti ochilgan. Uning asosiy maqsadi o‘zbek milliy musiqa merosini ilmiy o‘rganish va uni notaga olib, kelajak avlodga sof holda yetkazish edi. Ilmiy jamoaga O‘zbekistonning barcha hududlaridan kelgan eng bilimdon san‘at darg‘alari to‘plandi. Ularning ichida Ota Jalol Nosirov ham bor edi. U, V.A.Uspenskiy ta‘riflaganidek, “Buxorodagi “Shashmaqom”ni chuqur bilgan va uni saqlab qolgan eng so‘ngi va yagona vakildir”⁴³. Uning shogirdi Hoji Abdulaziz Rasulov ham Shashmaqom bilimdoni bo‘lib, shuningdek, u “Xorazm san‘atini bir usta vositasida urganchlik Yoqub Dorchidan, Farg‘ona maqom yo‘llarini Ashurali Mahramdan ta‘lim olgan”⁴⁴ va milliy san‘atkor darajasiga erishgan edi.

Uning “Ajam taronalari”, “Jazoyir” kabi musiqalari, ayniqsa “Gulzorim”, “Samarqand Ushshog‘i” kabi ko‘pgina o‘lmas ashulla yo‘llari juda mashhur bo‘lib ketgandi. Hoji Abdulaziz 1923-yilda Samarqanda ochilgan musiqa fakultetida Tolibjon Sodiqov, Nabijon Hasanov, Siroj Yusupovalarga, keyinroq o‘qituvchi sifatida Toshkentdan tashrif buyurgan Yunus Rajabiy, Risqi Rajabiy, Inomjon Ikromovlarga ham ustozlik qilgan.

⁴⁰История узбекской советской музыки. –Тошкент.: Г.Гулям, 1972. Т.1. –С.380.

⁴¹ История узбекской советской музыки. –Тошкент.: Г.Гулям, 1972. Т.1. –С.45.

⁴²Бадалов М. Умрбоқийлик// Нафосат. № 9-10, 1993. –Б. 18-19.

⁴³Успенский В.А. Классическая музыка узбеков// В.А.успенский. –Тошкент, 1980. –С. 33.

⁴⁴Ғулом Зафарий. Ўзбек муסיқаси тўғрисида // Аланга. 1930 йил январь. № 1.

Musiqqa va xoreografiya ilmiy tekshirish institutida Ota G'iyos Abdug'aniyev, Abduqodir Ismoilov, Matyusuf Xarratov, Sodirjon Bobosharifov kabi ko'pgina maqom bilimdonlari ham to'plangan edi. Ular bu dargohda Muxtor Ashrafiy, Mutavakkil Burxonov va Doni Zokirov kabi qator yosh iqtidorli o'zbek kompozitorlarining yangi avlodini tarbiyalash ishiga ham o'z hissalarini qo'shdilar⁴⁵. Ularning sharofati bilan N.Mironovning "O'zbek musiqasi", "Buxoro, Farg'ona va Xiva qo'shiqlari" kabi yirik to'plamlar dunyo yuzini ko'radi.

O'zbek maqom san'ati. O'zbekistonda maqomlarning uch yo'li mavjud, ular Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridir. Maqomlar o'zbek xalqining bebaho xazinasi bo'lib, bu san'atning yaratilishi va kamoloti ajdodlarning beqiyos badiiy tafakkuri bilan bog'liq.

Maqom tushunchasi arab tilida musiqqa tovushlarining "o'rtnashgan joyi", ya'ni musiqqa sozlarida "parda" degan ma'noda keladi. Umuman, kuy ma'nosida ham qo'llaniladi. Maqomlar – bu soz va so'z san'atining yuksak darajada uyg'unlashuvi asosida yuzaga keladigan chuqur badiiy-estetik kuchga ega bo'lgan asarlardir. Maqom insonning oliyjanob fazilatlarini, his-tuyg'ularini ifodalab beruvchi kuchga ega.

O'zbek maqom yo'nalishlari – bu nodir san'at, favqulodda noyob xodisa bo'lib, markaziy Osiyo xalqlari hayotida so'ngi asrlarda yuz bergan tarixiy o'zgarishlarning mahsulidir.

Maqom san'ati azaldan saroyning musiqiy javohiri sifatida qadr topgan bo'lib, u tarixdan ma'lum. Uning sofligini saqlashga Buxoro amirlari ham, Xiva xonlari ham o'zlarini mas'ul hisoblaganlar. Xususan, maqom bilimdonlariga xalq oldida bu san'atni namoyish etishga faqat bayram kunlari ruxsat berilar edi. Xonlarning maqomni bilib-bilmay ijro etuvchi hofizlarni jazoga tartishlari ham ularni qadrini va zalvorini asrashga bo'lgan munosabatni ko'rish mumkin. O'zbek maqom merosining hajmi shu qadar ulkanki, birgina Shashmaqomni olsak, uning har bir qismida oltitadan o'ntagacha cholg'u kuylari, qirqtadan elliktagacha ashulla yo'llari mavjud bo'lib, hammasi bir biriga uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib turgan 300 dan ortiq asardan iborat bo'lgan⁴⁶.

Buxoro Shashmaqomini tugal ko'rinish olishini Ota Jalol, Xorazm maqomlarini Ko'xna Urganchlik Niyozjon Xo'ja, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarini qashqarlik Xudoyberdi ustoz va Ashurali Mahramlarning xizmatlari bilan bog'laydilar⁴⁷. O'zbek an'anaviy musiqasining muhtasham, buzilmas poydevori bo'lmish Shashmaqom xalqning hayotini aks-sadosi, sevgi muhabbatining mangu kuylovchi epopeyalariga qiyoslash mumkin. 1950-yilda Shonazar Sohibov, Boboqul Fayzullayev tomonidan

⁴⁵ Хусанов О. Самарқанд булбули. –Тошкент.: Ф.Ғулом, 1970. –Б. 47.

⁴⁶ Ражабий Ю. Ўзбек мақомлари. Шашмақом. –Тошкент.: 2007. –Б. 68.

⁴⁷ Матёқубов О. Мақомот. –Тошкент.: Муסיқа, 2004. –Б. 90.

Shashmaqomning 5 jildlik varianti Tojikistonda va akademik Yunus Rajabiy tomonidan “Shashmaqom” to‘plami Toshkentda nashr etilgan.

O‘zbek maqom san’atining alohida yo‘nalishlaridan biri Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘lidir. Mazkur yo‘lning taraqqiyot bosqichi yuqoridagi ikki yo‘ldar farq qilib, unda nafaqat saroy, balki saroydan tashqari muhitning ta’siri ham kuchli ekanligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Katta ashula yoki patnisaki ashula. Ikki, uchu yoki to‘rt hofiz tomonidan sozlar jo‘rligisiz ijro etiladigan yirik shakldagi bunday ashula turi o‘zbek xalqi professional musiqa san’atining original janri hisoblanadi. Katta ashula marsiya, navha va boshqa ma’rosim qo‘shiqlari hamda aruz vaznidagi g‘azallarning qadimiy o‘qilish qoidalari zahirida vijudga kelgan. Qo‘qonlik Erkaqoqi, Mehmonqorilar, Marg‘ilonda Jo‘raxon Sultonovning ustozlari Boltatog‘a, Mamatbuva, Zokirjon Ergashevlar, Andijonda Musajon, Norali hofizlar shunday yirik san’at darg‘alri edi. Biroq o‘zbek xalqining bunday betakror milliy musiqiy merosi uzoq vaqt e’tiborsizlik, tazyiq va ta’qiqlar hukmronligi ostida yashab keldi. Sohaning taraqqiyoparvarlari va yoshlarni bu san’at turlari bilan shug‘ullanishlari, o‘rganishlari va bilimlarini oshirishlari uchun birorta o‘quv dargohi tashkil etilmadi. Faqatgina 1972 yilga kelib toshkent davlat konservatoriyasida “Sharq musiqasi” kafedrasini ochilgan, xolos.

Baxshilik. Baxshi mo‘g‘ilcha va buryatchadagi “baxsha”, “bag‘sha” – “ma’rifatchi”, “o‘qituvchi” ma’nosidagi so‘zlardan kirib kelgan degan qarashlar mavjud. Shuningdek, sanskrit tilida ham “darvesh”, “qalandar” va “ma’rifat tarqatuvchi” ma’nolarni anglatuvchi “bihikshu” so‘zi mavjud. Biz baxshi deb ataydiganimiz xalq kuychilari turkmanlarda bag‘shi, qoraqalpohlarda baqsi deyilsa, qozqolarda ularni jirov, kavkaz xalqlarida ularni oshiq deyilgan.

Shuningdek, baxshilar O‘zbekistonda ham turlicha nomlanadi. Masalan, Xorazmda baxshi, go‘yanda, ayollar orasida xalfa, surxondaryo va Qashqadaryoda shoir, soqiy va yuzboshi nomlari qo‘llanilgan.

Dostonlar kulanganda kuylovchi va tinglovchi o‘rtasidagi badiiy-estetik muloqot vositasida milliy g‘uru tuyg‘usi yuzaga keladi. Shunday ma’naviy muhit ta’sirida o‘quvchi va tinglovchilar ongu-tafakkuri shakllangan. Dostonlar xalq idealidagi tushuncha va tasavvurlarni, ijtimoiy-siyosiy voqealarni badiiy uslubda bayon etish bilan birga, ularda xalqning ma’naviy dunyosi, axloqiy-estetik qarashlari, adolat, ozodlik va tenglik uchun kurashlari, Vatanga bo‘lgan muhabbati va sadoqati o‘zining badiiy ifodasini topgan.

Baxshilik san’ati o‘zbek milliy musiqiy merosining eng zalvorli qismi hisoblanadi. G‘ozi Oliy o‘z vaqtida samarqand atrofida, Toshkentning qochig‘ali kentida, Farg‘onaning Shahrixon atrofida baxshilarning ijodini o‘rgangan va ularning merosi hamda musiqachilarning san’atini millatning nodir boyligi sifatida baholagan edi⁴⁸.

⁴⁸ Раҳим Ш. 30-35 йил муסיқа йўлида. // Ер юзи. 1926. № 10. –Б. 8-9.

Sobiq Sho'ro tuzimining milliy musiqa merosiga adolatsiz munosabati natijasi o'laroq, Buxoro, Samarqand, Namangan va Toshkent baxshichilik maktablari umuman yo'q bo'lib ketadi. Bu san'at ancha chuqur o'rin egallagan Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryoda saqlanib qoladi.

Xalfachilik. O'zbek xalqining yana bir milliy musiqiy merosi turi xalfachilikdir. "Xalfa" arabcha so'z bo'lib, "o'qimishli", "ustoz" degan ma'nolarni anglatadi. O'tmishda xotin-qizlar o'zlarining erkaklardan xoli bazmlarida ko'proq doira chalib yoki ikki bo'sh piyolani bir-biriga urishtirish natijasida chiqqan tovush bilan kuylab kelganlar. Bu davrda xalfaning asosiy cholg'u sozi doira bo'lgan.

Tadqiqotchi olim Yu.Yusupovning fikricha, Xonimjon xalfa Said Ahmadjon qizi 1895 yildan boshlab to'ylarda soz chalib kuylay boshlagan. Xorazm vohasi hududiga xos bu janr ayollar o'rtasida tarqalgan bo'lib, kitobiy dostonlar, rivoyatlar, hadislar ohang bilan ustoz xalfa (garmonda), doirachi va laparchi tomonidan ijro etilgan.

Xalq orasida "Ojiza" nomi bilan tanilgan Onabibi nafaqat mohir ijrochiligi, balki tinglovchi xotirasida bir umrga qoladigan kuylar to'qiganligi bilan ham nom chiqargan. Uning shogirdlari N.Sobirova, A.Quryozova, U.Boyjonovalar xalmifachilik san'atini davom ettirib, uning rivojiga katta hissa qo'shganlar. Onabibining "Muboraklar bo'lg'ay", "Arka qizlar", "Xurshidi jahon galdi", "O'lguncha sizni derman" kabi qo'shiqlari bugungi kunda ham o'z tinglovchilariga ega.

O'lanlilik. O'lanlar asosan ko'chmanchi chorvador va yarish ko'chmanchilardan iborat o'zbek urug'lari orasida keng tarqalgan. O'lan so'zi turkiy xalqlar orasida keng qo'llaniladigan atama bo'lib, "xalq qo'shig'i", "ashula", "ulamoq" ma'nolarida qo'llaniladi. Va asosan to'y va mavsumiy ma'rosimlarda kuylangan⁴⁹. Ularni to'plash va o'rganishda dastlab H.Zarifov, M.Alaviya, Z.Xusainova, T.G'oziboyev, B.Karimiy, M.Murodov, B.Sarimsaqov kabi olimlar katta ishlarni amalga oshirganlar.

XIX asr oxirlariga kelib o'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o'lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog'liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o'rganmoq zarur bo'ladi. Chunki ba'zi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta'sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o'ziga xos rivojlanish davri bo'lganligini ham e'tirof etish zarur bo'ladi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o'lkamizda milliy musiqa san'atimizni ilmiy ravishda o'rganish, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta'sir etdi.

So'nggi 130 yil ichida musiqiy madaniyatimiz murakkab, keskin ziddiyatlarga, ijobiy va salbiy ko'rinishlarga to'la tarixiy davrni boshidan kechirdi. Ana shu holatlarga qaramay, o'tgan davrlar mobaynida ilm fan, san'at, jumladan, musiqiy

⁴⁹ Турғунова Н. Санъатда яллачилик аъъаналари. // Санъат йўналишларида ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш: изланиш, ечим ва истиқболлар. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. Бухоро. 2013. –Б. 40-41.

madaniyat sohasida faxrlanishga arzigulik ishlar amalga oshirilganligini e'tirof etish zarur. Yaqqol misol sifatida musiqa ijodiyoti, ijrochiligi, musiqa ilmi, ta'limi singari sohalarni olish mumkin.

Shu o'tgan davrlarning salbiy oqibatlari sifatida hayotimizning o'ta siyosiy lashtiriluv, milliy qadriyatlarimizni mensimaslik, uning toptalishiga yo'l qo'yilishi, xalqchil yo'nalishlarga bepisandlik munosabatida bo'lish, azaliy xalqaro madaniy aloqalar rivojlanishiga sun'iy to'siqlar qo'yilishi kabilarni ko'rsatish mumkin.

Hozirgi zamon o'zbek musiqa ijodiyoti serjabha va ko'lami keng, usluban boy va rang-barang, rivojlangan va shiddatli jarayon sifatida gavdalanadi. Zotan, musiqiy madaniyatimiz juda qadim, betakror va noyob an'analarga ega bo'lgani holda, zamona zayli bilan yangidan-yangi yo'nalish, shakl, janr, uslublar bilan yanada boyib bormoqda. Demakki, asrlar osha bizgacha yetib kelgan ardoqli navobaxsh merosimiz qatori bir necha avlod ijodkorlarining ko'rkam musiqiy an'analari madaniy-ma'naviy mulkimizga aylandi. Har qanday san'at turi har xil vositalar orqali hayotiy voqelikni aks ettirishga qodir ekan, so'nggi yuz yillik mobaynida O'zbekiston musiqasining rivojlanishi nechog'lik murakkab va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish mumkin. Xususan, 20-yillardan e'tiboran kompozitorlikka xos ifoda vositalarining izchil joriy etila boshlanishi musiqiy madaniyatimizda musiqa ijodkorligining yangi tizimi barpo etilishidan dalolat berdi.

Tabiiyki, tez orada o'zbek xalq ijodiyoti, an'anaviy bastakorlik hamda havaskorlik singari o'zaro chambarchas bog'liq qatlamlar bilan uzviy bog'liq ravishda milliy qadriyatlarimizga, "noan'anaviy" kompozitorlik ijodkorligi muhim tarmoq sifatida qo'shiladi. Umumbashariy madaniy taraqqiyotga mos ravishda mazkur jabha o'lkamizda tarixan juda qisqa muddat ichida uzil-kesil shakllanib, samarali rivoj topganini alohida e'tirof etish lozim.

Musiqiy madaniyatimizning yangi yo'nalishi bo'lgan o'zbek simfonik musiqasi 70-80-yillarda peshqadam safga chiqib olganini eslab o'taylik. Bu o'rinda respublikamizda, qo'shni va qator xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan nufuzli madaniy tadbirlar, konsert, ko'rik-tanlov hamda festivallarda katta muvaffaqiyat bilan ijro etilgan o'zbekona poemalar, syuitalar, uvertyuralar, fantaziyaalar, cholg'u konsertlar va simfoniyaalar xalqaro musiqa jamoatchiligi diqqat-e'tiborini qayta-qayta o'ziga jalb qilgan.

Bugungi kunda o'zbek musiqa san'ati nafaqat asl an'anaviy ko'rinishlarida, balki kompozitorlik yo'nalishlarida ham xalqaro miqyosda tobora kengroq tan olinmoqda. Bu ma'noda sof cholg'u musiqasi, xususan, uning ancha murakkab sanalmish simfonik ijodiyoti alohida e'tiborga molik. Endilikda respublikamiz kompozitorligi shunchaki xilma xil musiqa janrlarida yozish va izlanish tajribalaridan iborat bo'lmay, balki noyob an'analarga, mumtoz namunalar xazinasiga ega sermahsul oqimdir. Uni turli yillarda xalqchil kuy ohanglar zaminida yaratilgan noyob va betakror asarlar

tashkil etadi. Zero, har qanday andozda bastalangan musiqaning milliylik, badiiy barkamollik, o'ziga xoslik, mazmundorlik, ta'sirchanlik kabi fazilatlari hamisha qadrlidir.

Yuksak kasb mahorati, teran bilimdonlik, nozik did bilan ko'hna milliy an'analarga tayanib yaratilgan asarlarning umri boqiyiligini birgina o'zbek simfonik musiqasi misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Jumladan, 30-yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan Aleksey Kozlovskiyning ovoz va simfonik orkestriga moslashtirilgan ehtirosli "Tanovar" poemasi, "Lola" syuitasi, Reyngold Gliyerning "Farg'ona bayrami" shodiyona uvertyurasi tinglovchilarga hamon olam-olam zavqu shavq bag'ishlab kelmoqda. Simfonik orkestr ishtirokida ijro etishga mo'ljallangan o'lmas kashfiyot darajasidagi asarlar orasida Mutal Burhonovning yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun "Alisher Navoiyga qasida"si, Muxtor Ashrafiy, Georgiy Mushel, Sulaymon Yudakovlarning qator simfonik asarlari, Doni Zokirovning "Lirik poema"si, Boris Nadejdinning "Bolalarga" syuitasi, Ikrom Akbarovning "Shoir xotirasiga", "Epik poema"lari, "Samarqand hikoyalari" turkumi, Sayfi Jalilning "Samarqandnoma" simfoniyasi, To'lqin Qurbonovning simfonik kuylari, Mirsodiq Tojiyevning "Shoir sevgisi" poemasi va 19 ta muhtasham simfoniyalari, Mirxalil Mahmudovning 3 ta simfoniyasi, Nurilla Zokirov, Mustafo Bafoev, Rustam Abdullayev, Habibullo Rahimov, Bahrullo Lutfullayev va boshqa ijodkorlarning yutuqlari musiqiy madaniyatimiz ravnaqiga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Xulosa

Zaminimizdagi musiqa san'atining rivoji uch ming yilga borib taqaladi. O'tgan bu zalvorli davrlar mobaynida musiqiy madaniyatimiz juda ko'p marta o'zining uzoq rivojlanish davrini bosib o'tdi va xalqimiz ma'naviy boyligining negizi sifatida ezgulik va taraqqiyot uchun xizmat qildi. Shuning uchun ham biz juda boy, rang-barang, ko'lami keng, usluban xilma xil, qiymati chin ma'noda bebaho darajali ulug'vor musiqiy merosga egamiz.

O'rta asrlarda faqat mumtoz ijodkorlik qatlamida "O'n ikki maqom"dek muhtasham tizim, uning negizida shakllanib bizgacha yetib kelgan Buxoro va Xorazm maqom turkumlari, Farg'ona-Toshkent maqomlari, an'anaviy ijrochilik va surnay yo'llari, xalq bastakorlik ijodkorligi, musiqiy dostonchilik san'ati musiqiy madaniyatimizning sarchashmalari sifatida bahramand qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Abdullayev. O'zbek mumtoz musiqasi. Toshkent. 2007 y.
2. R.Abdullayev. An'anaviy o'zbek musiqasi asoslari. Konservatoriya talabalari uchun darslik. "MUSIQA" nashriyoti. Toshkent. 2022-y, 17-b.
3. R.Abdullayev. Katta ashula. (maqola). O'zbekiston san'ati. Toshkent 1989 y.

4. R.Abdullayev. Shedevri kulturnogo naslediya. Moziydan sado. 1(45) Toshkent. 2010 y.
5. «Muzika narodov Azii i Afriki» vipusk V. Moskva.1978 g.
6. "Shashmaqom saboqlari" II kitob, Toshkent. 2005 y.
7. O.Matyaqubov. "Maqomot" Toshkent. 2004 y.
8. O.Matyqubov. Og'zaki an'anadagi professinol muzika asoslariga kirish. Toshkent. 1983 y.
9. A.Zokirov "Hofizlar silsilasi". (Magistrlik dissertatsiyasi) Toshkent. 2006 g.
10. S.Mannopov. "So'nmas navolar" (ommabop badiiy risola):. 2002 y.
11. Audio yozuv M.Tojiboyev bilan bo'lgan suhbat. T. 2007 y.
12. Andijon san'ati fidoyilari. Toshkent.2018 y.
13. A.Odilov. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. Toshkent.1995 y.
14. Xojimamatov A. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MUSIQIY MEROSGA MUNOSABATNI O'ZGARIB BORISH TENDENSIYASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 249-253 bet.
15. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). Science and Innovation, 1(4), 29-33.
16. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 8, 87-89.
17. Hojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 265-275.
18. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). MUSIQIY SAHNAVIY ASARLARNING IJROCHILIK MUAMMOLARI (O'ZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODI MISOLIDA). Science and innovation, 1(C4), 29-33.
19. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(10).
20. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari:" Navo" maqomi xususida. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH, 11(01), 55-58.
21. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(10).
22. Xojimamatov A. Atkiyoeva R. O'ZBEK MILLIY OPERALARINING TARIXIY AHAMIYATI VA ULARNING JAHON SAHNASIDA TUTGAN O'RNI

Vol. 9 No. 1 (2023): "RUSSIAN" INNOVATIONNĬYE PODXODY V SOVREMENNOY NAUKE

23. Xojimamatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023 162-166

24. . "VODIY BULBULI" TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA Journal of Innovation, Creativity and Art Vol. 2, No. 7, 2023ISSN:2181-4287 4-7